

QIZILQUM CHO'LIDA MALAKAVIY DALA AMALIYOTINI TASHKIL QILISH TAJRIBASIDAN (JONGELDI MAHALLASI MISOLIDA)

A.M.Mavlonov Buxoro davlat pedagogika
instituti Tabiiy fanlar kafedrası mudiri, g.f.n.
ahmadjonmavlonov1978@gmail.com

Annotatsiya. Ta'lim muassasalarida nazariy darslar bilan birga, malakaviy amaliyot darslari ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lim yo'nalishida malakaviy amaliyot darslarini tashkil qilish haqida fikr bayon etilgan. Maqolada malakaviy amaliyotning bosqichlari hamda amaliyot rayoni tanlanishining sabablari yoritib berilgan. Shuningdek, Jongeldi ovuli misolida 10 kunlik dala amaliyotini tashkil qilish bo'yicha namunaviy reja berilib, kundalik vazifalar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Malakaviy amaliyot, dala amaliyoti, amaliyot bosqichlari, amaliyot rayoni, cho'l zonasi, Quljuqtog', Jongeldi meteostansiyasi, iqlim, ob-havo, Jongeldi seysmik-prognostik markazi, Qizilqum cho'l stansiyasi.

Аннотация. В учебных заведениях наряду с теоретическими занятиями важны и профессиональные практические занятия. В данной статье описана идея организации профессиональных практик в области обучения основам географии и экономических знаний. В статье описаны этапы профессиональной практики и причины выбора региона практики. Также на примере овула Джонгелди приведен примерный план организации 10-дневной полевой практики и показаны ежедневные задания

Ключевые слова: Квалификационная практика, полевая практика, этапы практики, район практики, пустынная зона, Кулджуктау, метеостанция Джонгелди, климат, погода, сейсмопрогностический центр Джонгелди, пустынная станция Кызылкум.

Annotation. In educational institutions, along with theoretical classes, professional practical classes are also important. This article describes the idea of organizing professional practices in the field of teaching the basics of geography and economic knowledge.

The article describes the stages of professional practice and the reasons for choosing a region of practice. Also, using the example of the Jongeldi ovule, an approximate plan for organizing a 10-day field practice is given and daily tasks are shown.

Key words: *Qualifying practice, field practice, stages of practice, practice area, desert zone, Kuljuktau, Jongeldi weather station, climate, weather, Jongeldi seismic forecasting center, Kyzylkum desert station.*

Kirish. Bugungi kunda zamon bilan hamnafas, har tomonlama yetuk va bilimli kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim muassasalari oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bois, ta'lim muassasalarida nazariy darslar bilan birga, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, ayniqsa, malakaviy amaliyotlarni yuqori saviyada tashkil qilishga alohida e'tibor qaratiladi. Qolaversa, malakaviy amaliyot o'quv jarayonining ajralmas bir qismi hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Buxoro davlat pedagogika institutining (BuxDPI) 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lim yo'nalishining o'quv rejasida 3 haftalik (bahorgi jarayonda) malakaviy amaliyot tashkil etilishi belgilangan. Malakaviy amaliyot bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan o'quv dasturi (sillabus) ishlab chiqiladi va tegishli tartibda rasmiylashtiriladi. Odatda, malakaviy amaliyot boshlanadigan kuni o'quv-uslubiy bo'lim, fakultet rahbariyati va kafedra professor-o'qituvchilari

hamda talabalar ishtirokida amaliyotga bag'ishlangan konferensiya tashkil qilinadi. Unda malakaviy amaliyotning mazmun-mohiyati, maqsadi va vazifalari, amaliyot rahbarlari va amaliyotchi – talabalar oldida qo'yilgan talablar tanishtiriladi. Bundan tashqari, malakaviy amaliyotni tashkil qilish bosqichlari (tashkiliy, dala, kameral va yakunlovchi bosqich) va unda bajariladigan ishlar to'g'risida amaliyotchi – talabalarga ma'lumotlar beriladi [2,3]. 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lim yo'nalishining 1-bosqich talabalariga mo'ljallangan ushbu malakaviy amaliyot mazmuniga ko'ra o'quv-tanishuv amaliyoti hisoblanadi. Mazkur dala darslarining yarmi Buxoro shahri va unga yaqin tumanlardagi sohaga oid korxona va muassasalarda, maxsus qo'riqlanadigan hududlarda, qolgan qismi bevosita dala sharoitida o'tkaziladi.

BuxDPI ning 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabalarining malakaviy dala amaliyot o'tkaziladigan obyekti

sifatida Buxoro shahridan 200 km uzoqlikdagi Jongeldi mahallasi (ovuli) tanlangan.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Malakaviy amaliyot o'tadigan hudud sifatida Jongeldi mahallasining tanlanishining bir qancha ilmiy-amaliy asoslari mavjud:

1. Jongeldi ovuli geografik jihatdan qulay o'ringa ega. Mahallaning shimoli, Buxoro viloyatining eng baland nuqtasi (785 m) hisoblangan Quljuqtog', janubida esa Qizilqum cho'li yastanib yotadi. Bu yerda amaliyotchi – talabalar bir vaqtning o'zida cho'l va tog' landshaftlarini ko'rish imkoniyatiga ega;

2. Amaliyot rayonida Jongeldi meteostansiyasi ishlab turibdi. Unda sutkasiga 8 marotaba hududning ob-havosi kuzatiladi;

3. Rayonda hududning seysmik faolligi va yer osti suvlarning tarkibini muntazam o'rganib boradigan Jongeldi seysmik-prognostik markazi faoliyat yuritadi;

4. Jongeldi yaqinida cho'l zonasining o'simlik olamini doimiy monitoringini yuritib, unda bioxilma-xillikni saqlashda muhim o'rin tutadigan ilmiy muassasa – O'zFA Botanika ilmiy tadqiqot institutining Qizilqum cho'l stansiyasi joylashgan.

Yuqorida keltirilgan ilmiy muassasalar va kuzatuv stansiyalarining mavjudligi sabab malakaviy dala amaliyoti o'tkaziladigan rayon sifatida Jongeldi mahallasi tanlangan.

Odatda, uch haftalik malakaviy amaliyotning 10 kunini quyidagi tartibda dala sharoitida o'tkazish tavsiya qilinadi:

1-kun. Buxoro – Gazli – Svetushiy – Jongeldi yo'nalishi bo'ylab tabiatdagi o'zgarishlarni kuzatish. Bunda amaliyotchi – talabalar yo'nalish bo'ylab tabiatni kuzatib keladilar. Kunning ikkinchi yarmida Jongeldi ovulining tabiati, aholisi va xo'jaligi bilan umumiy o'rganadilar.

2-kun. Jongeldi hududining geologiyasi va geomorfologiyasini o'rganish. Quljuqtog'ning geologik tuzilishi, ochilib qolgan qatlamlar, tog' jinslarining hosil bo'lishi, Quljuqtog'ning relyef shakllari va foydali qazilmalari bilan tanishadilar.

3-kun. Jongeldi seysmik-prognostik markazi faoliyati bilan tanishish. Markaz mutaxassislari tomonidan olib borilayotgan ishlar – hududning seysmik faolligi va yer osti suvlarning tarkibini laboratoriya sharoitida kuzatadilar.

4-kun. Amaliyot rayonining iqlimi va ob-havosini o'rganish. Talabalar Buxoro viloyatidagi 4 ta meteostansiyalardan biri bo'lgan –

Jongeldi meteostansiyasi faoliyati bilan yaqindan tanishadilar. Dengiz sathidan 202 m balandlikdagi ushbu meteostansiyada 1950-yildan buyon ob-havoni kuzatish ishlari olib boriladi [6,7]. Amaliyotchi – talabalar Jongeldi meteostansiyasining kundalik ish tartibini kuzatish bilan birga, kunlik havoning harorati, namligi, bulutlilik, shamol va uning yo'nalishini aniqlash jarayonida

ishtirok etadilar. “Umumiy yer bilimi” va “Meteorologiya va iqlimshunoslik” fanlardan olgan nazariy bilimlari amaliyotda sinab ko'radilar. Bundan tashqari, har bir amaliyotchi-talabalar Jongeldi meteostansiyadagi asbob va qurilmalarning ishlash tartibi va kundalik ob-havoni kuzatish bo'yicha ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

BuxDPI Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari talabalari Jongeldi meteostansiyasida (2023-yil may)



5-kun. Rayonning ichki suvlarini o'rganish. Talabalar janubiy Quljuqtog'dan oqib tushuvchi mavsumiy oqar suvlar – daryo va soylar, ularning hudud geomorfologiyasidagi faoliyatini

o'rganadilar [8]. Yer osti suvlari, jumladan, artezian quduqlari, termal suvlarni tarkibini laboratoriya sharoitida o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

6-kun. Qizilqum cho'li va undagi relyef shakllarini o'rganish. Amaliyotchi – talabalar Jongeldi ovulidan 10 km janubdagi qumli cho'llardagi eol relyef shakllarini o'rganadilar. Barxanlar, qum gryadalari singari ko'chma qum shakllarini dala sharoitida kuzatadilar [4]. Ularning hosil bo'lishi va harakat yo'nalishlarini aniqlaydilar.

7-kun. Taqirli cho'llarni geografik sharoiti, o'simlik va hayvonot olamini kuzatish. Jongeldi – Kalata yo'nalishi bo'ylab marshrut tashkil qilinadi. Talabalar Kalata ovulining janubi va janubi-g'arbiy qismidagi katta maydonlarni egallagan taqirli cho'llarni kuzatadilar. Ovulning g'arbidagi saksovulzor o'rmonlarining vujudga kelishi va undagi flora va fauna bilan tanishadilar.

BuxDPI Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari talabalari Qizilqum cho'l stansiyasida (2023-yil iyun)



8-kun. O'zFA Botanika ilmiy tadqiqot institutining Qizilqum cho'l stansiyasi faoliyati bilan tanishish. Talabalar Qizilqum cho'lining florasining geobotanik tahlilini qiladilar. Qizilqum florasini va uning

tarkibini o'rganib, O'zbekiston "Qizil kitobi"ga kiritilgan o'simliklar ro'yxatini tuzadilar [5]. Shuningdek, amaliyotchi – talabalar cho'l o'simliklarini muhofaza qilish borasida Qizilqum cho'l stansiyasida

olib borilayotgan ishlar bilan tanishadilar.

9-kun. Amaliyot o'tkaziladigan rayonning hayvonot olamini kuzatish. Talabalar bunda Qizilqum cho'lida (Jongeldi hududida) uchraydigan sut emizuvchilar, sudralib yuruvchilar, qushlar va hasharotlar sinfi vakillarini ro'yxatini tuzib, ularning zoogeografik areallarini o'rganadilar.

10-kun. Jongeldi hududining tabiiy resurslarini o'zlashtirilishi va tabiatini muhofaza qilish masalalarini o'rganish. Amaliyotchi – talabalar rayonning tabiiy (kosmik, iqlimiy) va mineral resurslaridan xalq xo'jaligida foydalanish ahvoli bilan tanishadilar [1]. Bundan tashqari, tabiatini muhofaza qilish borasida qilayotgan ishlar va mahalliy xalq tajribalarini o'rganadilar. Kunning ikkinchi yarmida Jongeldi – Svetushiy – Gazli – Buxoro yo'nalishi bo'ylab tabiatdagi o'zgarishlarni kuzatib, malakaviy amaliyotni dala bosqichini yakunlaydilar.

Shundan keyin malakaviy amaliyotning kameral bosqichi boshlanadi. Ushbu bosqichda amaliyotchi – talabalar dalada yig'ilgan materiallarni tartibga soladilar. Har bir talaba kundalik daftarini va guruhlardagi zveno a'zolari esa malakaviy amaliyot hisoboti daftarini tayyorlaydi. Malakaviy amaliyotning so'nggi kuni har bir zveno amaliyot davomida bajargan ishlari to'g'risida taqdimot tayyorlab, ularning hisobotlari tinglanadi.

Xulosa. Umuman olganda, 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabalari ushbu malakaviy amaliyot davomida "Umumiy yer bilimi", "Geologiya va geomorfologiya", "Meteorologiya va iqlimshunoslik" fanlaridan olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashga juda katta ijobiy natija beradi. Shuningdek, talabalarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бабаев А.Г. Проблемы освоения пустынь. –Ашхабад, Ўлим, 1995. – 336 с.
2. Zokirov Sh.S., Soatov A.A., Zaynutdinov A., Egamberdiev Sh. Tabiiy geografiyadan o'quv-dala praktikasi. – Toshkent, 1989.
3. Mamatqulov M. Geografiya fakulteti 1-kurs studentlarining tabiiy geografiyadan o'quv praktikasi. – Toshkent, 1988.

4. Назаров И.К. Абиогенные потоки в аридных геосистемах: оптимизация природопользования. – Т.: Фан, 1992. – 100 с.
5. Nazarov I.Q., Allayorov I.Sh. Buxoro geografiyasi. – Buxoro, 1994.– 67 b.
6. Nurov U.N. Buxoro viloyati iqlimi va uning resurslari. – Buxoro, 1996. – 44 b.
7. Петров Ю.М. Бухара. Климат и погода. – Т.: Главгидромет, 1999.– 171 с.
8. Halimova G.S.. Past tog'lar suv resurslari shakllanishining tabiiy geografik omillari va ulardan samarali foydalanish masalalari (Quljuqto'v tizmasi misolida). Geografiya fanlari falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2020. – 46 b.

BUXORO VILOYATI KO'LLARINING TURISTIK IMKONIYATLARI

Shokirov Akobirjon Abrorovich

Buxoro davlat pedagogika instituti

Tabiiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

shokirovakobirjon7@gmail.com

Annotatsiya. Ma'lumki mamlakatimiz Yevroosiyo materigining ichida okean va dengizlardan uzoqda joylashganligi hududimizda adir iqlimli cho'l landshaftining shakllanishi uchun asosiy, shu jumladan, viloyatimiz ham ana shunday cho'l zonasida joylashgan bo'lib, shundan hududni suv resursi va u bilan bog'liq tarzda turizm sohasida foydalanish ham dolzarbdir.

Kalit so'zlar: Ko'l, turizm, ichki turizm, rekreatsiya, to'qay, cho'l landshafti, ekoturizm, ovchilik.

Аннотация. Нашим долгом и человеческим долгом должно быть экономное использование воды, ее защита, поддержание чистоты и передача ее будущим поколениям. Пословицы «Где вода, там и жизнь», «Где нет воды, жизнь кончается» обычно относятся к пустынной зоне. Как известно, расположение нашей страны внутри материка, вдали от океанов и морей, привело к формированию в наших краях пустынного ландшафта. Кроме того, наш регион находится в такой пустынной зоне, поэтому важно